



MOVAROUNNAHRDA ILK MADRASALARNING SHAKLLANISH
TARIXI

O‘rinboyeva Muslima Baxtiyor qizi

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Tarix yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Muslimabaxtiyarovna268@gmail.com +998956360826

Ilmiy rahbar: Tangirov Obid

“Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA”

kafedrası dotsenti,

Annotatsiya: Bu maqolada islom olamida ilk madrasalarning shakllanishi, Movarounnahrda dastlabki oliy o‘quv yurtlarining tashkil topishi tahlil qilinadi. Madrasalarning Markaziy Osiyodagi ta‘lim rivojida, qolaversa, birinchi va ikkinchi renessansning asosini shakllantirishda muhim ro‘l o‘ynaganligi tadqiq etiladi. Madrasalardagi olib borilgan tizimli o‘qitish uslublari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Movarounnahr, Buxoro, madrasa, qur‘on, fiqh, hadis, kalom, tasavvuf, kutubxona

Abstract: This article analyzes the results of the first madrasahs in the Islamic world, the establishment of the first higher education institutions in Transoxiana. It examines the important role that madrasahs played in the development of education in Central Asia, as well as the foundation of the first and second Renaissance. The systematic teaching methods carried out in madrasahs are revealed.

Keywords: Transoxiana, Bukhara, madrasah, Quran, jurisprudence, hadith, kalam, tasawwuf, library

Аннотация: В статье анализируются результаты деятельности первых медресе в исламском мире и создание первых высших учебных заведений в Моворуннахре. В статье рассматривается важная роль медресе в развитии образования в Средней Азии, в том числе в эпоху первого и второго Возрождения. Раскрываются системные методы обучения, используемые в медресе.

Ключевые слова: Мавераннахр, Бухара, медресе, Коран, юриспруденция, хадисы, калам, суфизм, библиотека

“Madrasa” atamasi arab tilidan kelib chiqqan bo‘lib, uning o‘zak qismi “darasa □ □ o‘rganmoq, o‘qimoq, dars olmoq degan ma‘noni anglatadi, binobarin





madrasa □ o'qish joyi, ilm o'rganish joyi demakdir. Madrasa musulmonlarning o' rta va oliy o' quv yurtidir. Tarixan madrasalarda ulamolar, maktabdorlar, davlat xizmatchilari, xattotlar tayyorlangan. Madrasalar vaqf mulklari hisobiga ta'sis etilgan. Madrasalarda mudarrislar va boshqa xizmatchilar maosh, talabalar nafaqa, o'quv qurollari va turarjoy bilan ta'minlangan. Madrasalarda diniy ta'lim bilan birga, dunyoviy bilimlar ham o'qitilgan.¹³³

Islomning ilk davrida, VII-IX asrlarda Islom dini ulamolari masjidlarida va boshqa jamoat joylarida musulmonlarga ilohiyot masalalarini sharhlab berib turganlar. Din taraqqiy etgan sari ilohiyot masalalarini odamlarga o' rnatadigan, ilohiyotchilarni tayyorlashga xizmat qiladigan alohida o' quv muassasiga ehtiyoj tug' iladi va shu tariqa madrasalar paydo bo' la boshladi. Madrasaning birinchi ta'lim muassasasi Zayd ibn Arkam mulkida Safo degan tepalik yaqinida bo'lib, u yerda Muhammad (s.a.v.) shogirdlari, izdoshlariga dars bergan edi. Hijratdan keyin Madinada Masjid an-Nabaviy masjidining sharqiy tomonida "Suffa" madrasasi tashkil etilgan¹³⁴.

Islom olamidagi ilk madrasa Muhammad ibn Hasan Shayboniy (vaf. 805-y.) ning shogirdi Abu Hafs Ahmad ibn Hafs al-Kabir al-Buxoriy (150/768-yili tug' ilib, 216/832-yil vafot etgan) tomonidan Buxoroda " Poyi Kalon" mavzeida 800-810-yillar atrofida bunyod etilgan. U o' z zamonasining mashhur madrasalaridan sanalib, u Buxoroda XIII asrda ham faoliyat yuritgan.

Abu Hafs Kabir talabalarga dars berib, ko'plab shogirdlarni tarbiyalab, kamolotga yetkazdi. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Hafs (Abu Hafs Sag'ir), Abu Ja'far Rizvon ibn Salim Badokoriy, Abul Hasan Muqotil ibn Said Baydariy, Muhammad ibn Hotam Subizug'ukiy, Abu Zahhok Fadl ibn Xasson Sutikaniy, Horis ibn Abul Vafo Buxoriy, Abu Said Sulaymon ibn Dovud Sharg'iylar shular jumlasidan sanaladi. Abu Hafs Kabir Buxoriy qalamiga mansub "Kitob ut-taxrij", "Favoid", "Fatovo" va "Masoil" kabi asarlar borligini aniqlagan. Imom Abu Hafs al-Kabir al-Buxoriyning madrasasi islom olamining turli o'lkalaridagi olimlar va tolibi ilmlarning orzu qilgan madrasasi bo'lgan. Bu madrasalarning Buxorodagi odamlar va unga qo'shni davlatlar orasida islomni yoyishda hissasi beqiyos bo'lgan. Unda Qur'on, fiqh, hadis, tafsir, mantiq, matematika (riyoziyot), geometriya (handasa), tibbiyot, tarix, jo'g'rofiya, adabiyot, she'riyat (ilmi aruz), arab tili kabi qator fanlar o'qitilgan. Mazkur madrasada Abu Hafs Kabir, o'g'li Abu Hafs Sag'ir (Abu Abdulloh), nevaralari Abdulloh ibn

¹³³ Ислам энциклопедияси. —Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. 278-бет

¹³⁴ Jonathan Berkey. *The Transmission of Knowledge in Medieval Cairo*. Princeton University Press, 1992.





Muhammad fiqh, hadis, kalom, tasavvuf kabi ilmlardan saboq berishgan. Manbalarda Imom Abu Hafs Kabir Buxoriy bomdod namozidan keyin tolibi ilmlarga dars bergan deb qayd etiladi. Abu Hafs Kabirning ayollari ham yirik fiqhshunos olim bo'lib, ayollarga saboq berganlar.

Ayrim tarixiy manbalarda qayd etilishicha, islom madaniyati tarixidagi birinchi tizimli madrasa 1066-yili saljuqiy vazir Nizomulmulk Bag'dodda barpo etgan deyishadi. Ammo tarixiy manbalar Bag'dod madrasasidan taxminan bir asr avvalroq Buxoroda tizimli madrasalar bo'lganligini isbotlaydi. Shuningdek, "Ravzat ul-jannot" ("Jannat bog'lari") kitobi muallifi Xavonsoriyning quyidagi gapi fikrimiz dalilidir: "Birinchi qurilgan madrasa Buxoroda bo'lgan". U Abu Hafs Kabir madrasasidir. Buxorodagi eng qadimiy oliy o'quv yurti, IX asrdayoq asos solingan. Tarixchi Abu Bakr Narshaxiyning yozishicha, ta'lim tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, ilm-fanning rivojlanishi va Abu Hafs Kabir Buxoriyning sharofati bilan Buxoro "Qubbat ul-islom" – "Islom dinining gumbazi" unvonini olgan¹³⁵. IX – X asrlarda ko'plab yirik taniqli olimlar, jumladan, Imom Buxoriy hazratlari shu ilm dargohida o'qishgan. Tarixchi Vamberi o'zining "Tarixi Buxoro" va as-Sa'diy "Tarix ad-duval" nomli asarlarida Imom Abu Hafs Kabir Buxoriyning madrasasi islom olamining turli o'lkalaridagi olimlar va talabalar orzu qilgan eng yaxshi madrasa bo'lganini ta'kidlashgan.

Kular Tekin madrasasi Buxorodagi ilk madrasalardan bo'lib, masjid yonida tashkil etilgan. Shuningdek, bu fikrni islom madrasalari tarixini o'rgangan iroqlik professor Nojiy Ma'ruf ham bir necha kitobida ma'qullaydi¹³⁶.

Ahmad ibn Muhammad Nasr shunday deydi: "Sharq (qishlog'i) xatibining menga bergan xabaricha, u jome masjidida bir martadan boshqa juma nomozi o'qigan emaslar, ana shu bir marta o'qishdan keyin Buxoro imomlari ruxsat bermay qo'yishgan va u masjidda juma namozini o'qishni to'g'ri topmaganlar. Bu juma masjidi Qadrxon Jabrail ibn Umar ibn To'g'ri rulxon Buxoroga amir bo'lgan vaqtgacha bo'sh qoldi. Bu amirning nomi To'g'ri rulbek bo'lib, laqabi Kulartegin edi. U masjidning yog'ochlarini xonsolarning merosxo'rlaridan sotib olib, masjidni buzdi va yog'ochlarini Buxoro shahriga keltirib, "Jo'bayi baqqolon" (Baqqollik bozori) yaqinida madrasa bino qildi, u yog'ochlarni shu madrasaga ishlatdi va behisob pul sarfladi. U madrasani Kulartegin madrasasi deb ataydilar. Bu amir shu madrasaga dafn etilgan edi". Qadrxon Jabrail yoki Kulartegin qoraxoniylar sulolasi

¹³⁵ Бухоро тарихи: матн. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Форс тилидан А.Расулев таржимаси. - Toshkent: Dunyo nashr, 2024. —81-бет.

¹³⁶ Бартольд В.В.История культурной жизни Туркистана. – Л.: Изд-во Академии Наук СССР. 1927. – С. 110.





hukmdorlaridan bo'lgan. U 1099-1102-yillarda Arslonxon Muhammad ibn Sulaymondan oldin hukmronlik qilgan.¹³⁷

Kalobod madrasasi ham Buxorodagi ilk madrasalardan biridir. Kalobod madrasasi IX-XX asrlarda faoliyat yuritgan bo'lib, hozirda saqlanib qolmagan. Madrasaning asl nomi Kalobod bo'lib, tarixiy manbalarda Arslonxon madrasasi, Xon madrasasi va Abdurahimxoja madrasasi deb ham yuritilgan. Hozirda unga nisbatan aksariyat hollarda Kalobod madrasasi, ba'zan Gulobod madrasasi nomlari qo'llaniladi. Unda Imom al-Buxoriy va ko'pgina mashhur tarixiy shaxslar ilm o'rganishgan 1916-yilda Orenburgda chop etilgan Sho'ro jurnalining 12-soniga ko'ra, Kalobod madrasasi Buxoroning "oliy" toifadagi madrasalari turkumiga kirgan va uning yillik vaqf foydasi 80 ming tangani tashkil qilgan. Kalobod madrasasini shartli ravishda 3-darajali oliy toifaga mansub madrasalar safiga kiritadi. Mazkur toifadagi madrasalarda banoras to'nli mudarrislar dars o'tishgan.¹³⁸

Shuningdek, Farjak madrasasi nafaqat Buxoro, balki butun boshli mintaqamizda bunyod etilgan dastlabki madrasalardan biridir. U to'g'risidagi ma'lumotlar Muhammad Narshaxiyga tegishli bo'lib, bu madrasa taxminan IX asrda Buxoro shahrining "Samarqand darvoza" deb ataladigan qadimiy manzili hududida, yo'l yoqasida qurilgan. Milodiy 937-yilda yonib vayron bo'lgan.¹³⁹ Keyinchalik u ta'mirdan chiqarilgan. XIII asrda unda mudarris Mas'ud Imomzoda dars o'tganligi haqida ma'lumotlar bor.¹⁴⁰ Afsuski, binosi saqlanib qolmagan. G'aribiya madrasasi ham Buxorodagi tarixiy madrasalardan hisoblanadi. Mutaxassislar mazkur madrasani IX asrda qurilgan, degan fikrni ilgari surishadi.

Samarqanddagi Dor ul-Juzjoniya madrasasi ham o'z davrining mashhur ilm dargohlaridan biri bo'lgan. Madrasa IX asrda Samarqandda muhaddis Abu Bakr Sulaymon az-Juzjoniyl tomonidan bunyod etilgan. Mazkur oliy o'quv yurti X—XII asrlarda Samarqaddagi yirik ilm maskanlaridan biri bo'lgan.¹⁴¹ Dor ul-Juzjoniya madrasasida Abul Fath Solih mudarris va imom bo'lgan. U talabalarga kalom ilmi va fiqhdan dars bergan. Dor ul-Juzjoniya madrasasida albatta o'sha davrdagi vaqf hujjatida belgilangan nizomlar asosida boshqarib borilgan, mudarrislar ham shu asosida tayinlangan.¹⁴²

¹³⁷ Buxoro ta'lim tizimi tarixi. Abdusattor Jumanazar. Toshkent: Akademnashr, 2017. — B. 305.

¹³⁸ Buxoro ta'lim tizimi tarixi. Abdusattor Jumanazar. Toshkent: Akademnashr, 2017. — B. 59-60.

¹³⁹ Бухоро тарихи: матн. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Форс тилидан А.Расулев таржимаси. - Toshkent: Dunyo nashr, 2024. —134-6et.

¹⁴⁰ Саидкулов Т. Очерки историографии истории народов Средней Азии. - Т., Укитувчи, 1992. — С. 106.

¹⁴¹ Tursunova M. *Samarqand madrasalari (monografiya)*. Toshkent: Fan nashriyoti, 2019 — 208-bet.

¹⁴² Abdusattor Jumanazar. *Samarqand ta'lim tizimi va madrasalari tarixi*. Toshkent: Fan, 2021 — 520-bet.





Aksar madrasalar ichida kutubxonalar mavjud edi. Bundan tashqari, kutubxonalar sultonlar tomonidan jamoat manfaatlari uchun ham qurilgan edi. Buxoro amiri Nuh ibn Mansurga oid bir kutubxona ham mavjud bo'lganini ko'rish mumkin. Ibn Sino bu kutubxona haqida oldin uchratmagan kitoblarini mazkur kutubxonada ko'rganini ta'kidlagan. U saroy kutubxonasining bir necha xonadan iborat bo'lgani, har bir xonaning ma'lum bir ilm yoki san'at sohasiga doir qo'lyozmalar bilan boyitilgani, kutubxonadagi qo'lyozma asarlar sandiqlarda saqlangani haqida keltiradi¹⁴³.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, ulug'vor Movarounnahr zaminidan uzoq davr mobaynida yuzlab, minglab ziyolilarni, ilm-ma'rifat sohiblari va ma'rifatparvarlar yetishib chiqqan. Aynan mazkur holat Markaziy Osiyo tarixida yorqin iz qoldirgan Birinchi va Ikkinchi renessans shakllanishida salmoqli o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ислom энциклопедияси. —Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. 278-бет
2. Jonathan Berkey. The Transmission of Knowledge in Medieval Cairo. Princeton University Press, 1992.
3. Бартольд В.В.История культурной жизни Туркистана. – Л.: Изд-во Академии Наук СССР. 1927. – С. 110.
4. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. Abdusattor Jumanazar. Toshkent: Akademnashr, 2017. — B. 305.
5. Abdusattor Jumanazar. Samarqand ta'lim tizimi va madrasalari tarixi. Toshkent: Fan, 2021 — 520-bet.
6. Jurji Zaydon. Islom madaniyati tarixi. III jild. –B. 448-449
7. Саидкулов Т. Очерки историографии истории народов Средней Азии. - Т., Укитувчи, 1992. – С. 106.

¹⁴³Jurji Zaydon. Islom madaniyati tarixi. III jild. –B. 448-449

